

hududida bir necha kuzatuv minorasi va ular bo'yicha maxsus marshrutni yaratish ishlari olib borildi. Hozirgi kunda pitomnik hududini sayohat qilish uchun taklif etiladigan 8-yo'nalish bo'yicha marshrutlar xaritasi tuzilgan, 25 o'rinli zamonaviy mehmonxona qurilishi davom etmoqda. Ekomarkaz saytida 3D-sayohatlarni tashkil etish bu hududga sayyohlarni qiziqishini ortishiga, yurtimizning chekka hududlaridagi o'quvchi yoshlarning tabiatga uning har bir komponentiga qiziqish va mehrning shkllanishiga turtki bo'ladi.

Yurtimizda tabiatni muhofaza qilish, noyob turlarini ko'paytirish borasida izchil ishlar davom etayotgan bir paytda qonun buzari holatlari ham uchrab turibdi.. 2016-yildan beri jayronlar simto'r bilan o'ralgan 5140 gektardan tashqariga chiqarilmayabdi. Bunga asosiy sabab brokonerlik faoliyatidir. Brokonerlar o'rtacha 1 oyda 100 mln.so'm miqdorda zarar yetkazmoqda. Bunday holatlarni oldini olish madsadida tez-tez "brokonerlikka qarshi oyliklarni va maxsus reydlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

www.daryo.uz

www.eco.gov.uz

www.uzbekistan.travel.uz

O'ZBEKISTONDAGI PAST TOG'LARNI GEOGRAFIK TADQIQ QILISHNING AMALIY AHAMIYATI

G.S.Halimova

BuxDU, g.f.f.d. (PhD),

Sh.S.Babakulova

BuxDU, Geografiya ixtisosligi magistranti,

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistondagi past tog'larning o'rganilganlik darajasi, ularni geografik tadqiq qilishning amaliy ahamiyati haqida so'z boradi. Bundan tashqari Qizilqumdagi past tog'larga qisqacha umumgeografik tavsif berilgan.

Kalit so'zlar: Tekislik, past tog', adir, tog', relyef morfometriyasi, yassitog'lik, litoedafik sharoit, iqlimiy xususiyat, gidrometeorologik sharoit.

O'zbekiston hududining katta qismi tekisliklardan iborat bo'lib, uning asosiy qismi cho'l tabiat zonasiga tog'ri keladi. Mazkur hududlarni ilmiy-amaliy jihatdan majmualari o'rganish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga, xalq xo'jaligini samarali tashkil qilishga xizmat qiladi.

Cho'llarning tekisliklardan iborat bo'lgan hududlari juda ko'p soha vakillari tomonidan o'rganilgan va o'rganib kelinmoqda. Ammo, cho'llarning asosan markaziy qismlarida alohida, orolsimon qad ko'targan past tog'larning o'rganilganlik darajasi ilmiy va amaliy jihatdan mukammal emas.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, relyefning morfometriyasi, ya'ni shakllarning dengiz sathiga nisbatan joylashgan o'rniga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin: cho'kma va botiqlar, pasttekislik(0-250 m) va tekisliklar(200-300 m), baland tekislik (300-500 m), plato va qir-adirlar (200-1000 m). Lekin adir, past tog'lar, yassi tog'larning balandligi bir xil emas. Masalan, adirlarning o'zi past (400-800 m), o'rtacha balandlikdagi (700-1000 m) va baland (1700 metrgacha) adirlarga bo'linadi [8; 381-b.].

O'rta Osiyo geomorfologiyasini o'rgangan Z.A.Svarichevskaya (1965) past tog'larning mutlaq balandligini 1000-2000-metrgacha belgilash zarurligini uqtiradi [3;15-b].

Yer yuzida yassitog'liklar ko'p. Ularning yiriklari O'rta Sibir, Braziliya, G'arbiy Avstraliya, Qozog'iston, Dekan kabilar 1000-2000-m balandlikka ega. O'rtacha balandlikdagi tog'lar 2000-3000-m, baland tog'lar 3000-5000-m, eng baland tog'lar 6000-m dan baland.

Past tog'lar odatda *baland tog'larga tutash past tog'lar* va *alohida ifodalangan qoldiq past tog'lar* guruhiga bo'linadi. Ana shunday past tog'lardan bir nechtasi markaziy Qizilqum cho'lida joylashgan Sulton Uvays, Bo'kantov, Yetimtov, Tomditov, Quljuqtov kabi balandligi 1000 metrga ham yetmaydigan

past tog'lar shular jumlasidandir. Magistrlik dissertatsiyasining tadqiqot obyekti sifatida Qizilqumning yuqorida nomlari keltirilgan past tog'lari tanlangan.

Bu tog'lar Qizilqum cho'lining markazida shimoldan janubga tomon taxminan 202 kilometr masofada yastanib yotadi. Eng shimolda Bo'kantov past tog'i g'arbdan sharqqa tomon cho'zilgan bo'lib eng baland nuqtasi 764 m. Bo'kantovdan janubi sharqda taxminan 18-19 km uzoqlikda Jetimtov tog'lari (eng baland joyi 511 m.) joylashgan. Jetimtov past tog'lari ayrim manbalarda Yetimtov deb ham yuritiladi. Jetimtovdan 65 kilometrcha janubda Tomditov past tog'lari (Qizilqum markazidagi past tog'lar ichida eng "balandi"-974 m.) cho'l bag'rida qad ko'targan. Tomditovdan janubi-g'arbda 43 km uzoqlikda Ovminzatov tog'lari, Janubi sharqda esa 21-22 km dan so'ng Qozoqtov tog'lari, Ovminzatovga parallel 46 km janubda Quljuqtov tog'lari sharqdan g'arbga tomon cho'zilib yotganini guvohi bo'lamiz, Quljuqtovning eng baland nuqtasi 785 metrga teng [1; 191-b.].

Mazkur tog'lar paleozoy erasining oxirida yuz bergan gersin burmalanishi tufayli hosil bo'lgan ushbu tog'lar asta-sekin yemiriladi va sekin harakat qiluvchi platforma mintaqasiga (turon plitasiga) aylanadi. Paleogen davrining oxirida, ya'ni bundan 25 mln yil muqaddam boshlangan neotektonik (alp bosqichi) harakatlar tufayli qayta ko'tariladi. Aniqroq qilib aytganda, Quljuqtov tizmasi qadimda, sekin harakatdagi platforma sharoitida 1300 metrgacha ko'tarilgan xolos.

Paleogen davrida tog' qatlamlari qayta burmalangan va nihoyat burmali-palaxsali tuzilishga ega bo'lgan. Mazkur ko'tarilishlar boshqa past tog'larda ham turlicha jadallikda ro'y bergan. Tog'lardagi hozirgi mutlaq balandliklar, keyingi 25 mln yil davomida ro'y bergan ko'tarilish va yemirilish jarayonlarining oqibatidir. Bu tog'larda hozirgi davrda ham ko'tarilishlar davom etmoqda. Bu ko'rsatkich Tomditovda 21 mm/yilga teng [5;121-135-b., 2; 27-53-b.].

Past tog'larda tuproq qoplami odatda tog'larning markaziy suvayirg'ichli qoyali ochilmalarni o'rab turgan pastki yonbag'irlarni egallaydi. Mazkur yuzalarda, litoedafik sharoitga mos holda, *sur-qo'ng'ir* tuproqlarning bir necha kichik tiplari tarqalgan. Ular odatda shag'alli, gipsli avtomorf tuproqlardir.

Chirindi miqdori 0,2-0,5% atrofida bo'lib, gipsofit o't va butalar bilan, turli darajada qoplangan, soylarning quyi etaklarida esa orolsimon tarzda taqirli va sho'rxok tuproqlar uchraydi. Cho'l zonasidagi past tog'larning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, tog'larning shimoliy etaklarida (akkumulyativ yo'laklar) va tog' oralig'idagi pastqamliklarda oqim hosil qilmaydigan g'ovak, cho'l qumli tuproqlar keng tarqalgan. Bular odatda shamol oqimlari tufayli to'plangan, mayda donador (0,25-0,05 mm) mexanik tarkibga ega bo'lib, iloqli chimli qatlamli ko'chmas qumlardir.

Iqlimiy xususiyatlariga ko'ra, mazkur past tog'lar subtropik belgilarga ega bo'lgan, ya'ni mo'tadil mintaqadan subtropik mintaqaga o'tuvchi cho'llar doirasida joylashgan. Iqlimida keskin kontinentallik, ya'ni meteorologik ko'rsatkichlarning kecha va kunduz, oy, mavsum va yillar kesimida keskin farqlanishi kuzatiladi. "Iliq qishlar" shimolda 5% ni tashkil qilsa, bu ko'rsatkich janubiy tizmalar hududida 60% gacha boradi. Atmosfera yog'inlarining o'rtacha ko'p yillik miqdori g'arbdan sharq tomonga qarab ortib boradi. Bu ko'rsatkich Nukusda 82, Bo'zaboyda 86, Ko'lquduqda 138, Oyoqog'itmada esa 133 mm ga teng.

Atmosfera yog'inlarining aksariyat qismi (80-83%) qish va bahor oylarida sodir bo'ladi. Natijada aksariyat bahor oylarida soylar to'lib oqadi, toshqinlar sodir bo'ladi. Bunday ofatli toshqinlar tog'lar etagidagi yaylovlarni o'zining qattiq (muallaq) oqizqlari (loy, tosh-shag'al) bilan nobud qiladi, yo'llarni buzadi va katta miqdorda moddiy va ma'naviy zarar keltiradi. Atmosfera yog'inlarining miqdori yillar kesimida ham keskin farqlanishlarga, ya'ni davriylikka ega. Masalan, Quljuqtov tizmasi doirasida har 4-5 yilda bir marta nisbatan namgarchilik (169,6-247,7 mm gacha) va har 9-10 yilda esa bir marta qurg'oqchilik (34,0-36,5 mm gacha) yillari sodir bo'ladi [7; 119-122-b.]. Mazkur yillar ayniqsa chorvachilikka katta zarar yetkazadi, qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tug'diradi. Shunga qaramasdan hanuzgacha ma'muriy-hududiy tashkilotlar tomonidan soy suvlarining salbiy oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha chora-

tadbirlar ishlab chiqilmagan. Past tog'larning suv berish imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazi tomonidan kuzatuv ishlari yo'lga qo'yilmagan.

Cho'l zonasidagi past tog'larda mavjud bo'lgan buloqlar soni o'ta cheklangan, ikkinchidan ularning suv berish quvvati ham kam – o'rtacha 1,5-2,0 l/s atrofida. Buloq suvlarining kimyoviy tarkibi xilma-xil. Odatda ular sho'rtob, faqat chorva mollari uchungina yaroqli, ichimlik suv me'yorlari talablariga javob bera olmaydi. Buloqlar odatda past tog'lar oralig'ida joylashgan berk botiqlar hududida hamda past tog'lar etaklarida mavjud. Tomdibuloq (Tomditov), Oydinbuloq, Churuq, Oyoqog'itma (Quljuqtov), Ko'lquduq, Irlir (Bo'kantov) shular jumlasidandir. Mazkur buloqlar gidrogeologik nuqtai nazardan yaxshi o'rganilmagan bo'lsada, yerli, aksariyat qozoq millatiga mansub bo'lgan chorvador aholi tomonidan turli xo'jalik maqsadlarida foydalanilib kelinmoqda.

Past tog'lar va uning atrofidagi yaylovlarda chorva mollarini sug'orish maqsadida, quduqlar to'ri yaratilgan. Quduqlar bir-biridan 8-10, 12-14 km gacha uzoqlikda joylashgan bo'lib, ularning suvlari odatda sho'rdir.

Cho'l zonasidagi past tog'lar organik dunyosiga ko'ra baland tog'larga tutash past tog'larga nisbatan kambag'al. Qizilqum cho'li doirasida yuksak o'simlikarning 900 turi ro'yxatga olingan. Ular bir-biridan farq qiladigan beshta yashash sharoitida o'sadi. Bular: past tog'lar, qirlar, qumliklar, to'qaylar va berk botiqlardir. Bular orasida past tog'lar yetakchilik qiladi va ular 272 turni tashkil qiladi [4; 184-205-b.]. Past tog'larda efemer, efemeroid o'tlar, ozuqabop butalar – qorabosh, yaltirbosh, qo'ng'irbosh, shuvoq, astragal, keyreuq, yovvoyi oq pechak, boyalich ustunlik qiladi. Ayrim past tog'larda o'ziga xos turlar ham mavjud. Masalan, Quljuqtov tizmasida lotuk, qora boyalich, malla shuvoq, partek keng tarqalgan. Ayrim soylarning quyi qismidagi pastqamliklarda esa yantoq, yulg'un va qamish kabi o'simliklardan iborat to'qay yo'laklari ham uchraydi. Past tog'lar yuzalarining o'simliklar bilan qoplanganlik darajasi 1,0-50% atrofida. Hosildorlik esa, gidrometeorologik sharoitga bog'liq holda, 0,5-3,0 s/ga atrofida bo'ladi [6; 14-

23-b.].

Cho'l zonasidagi past tog'larning hayvonot dunyosi baland tog'larga tutash past tog'lardan keskin farq qilmaydi. Shunday bo'lsada, xususiy farqlanishlar ko'zga tashlanadi. Janubi-g'arbiy Qizilqumda atigi 29 tur qushlarning uya qo'yishi ro'yxatga olingan. Bu ko'rsatkich baland tog'larga tutash past tog'larga nisbatan 3-4 marta kam. Cho'l zonasidagi past tog'larda o'ziga xos hayvonot turlari: charx ilon (efa), qum iloni, quloqli va qum dumaloqboshi, saksovul soykasi, oqbovur, jo'rchi (kal jo'rchi), to'rg'aylar, jayron, barخان mushugi, olaqo'zan, echkemar, katta qumsichqon, to'garakbosh (agama), qizil dumli yumronqoziq kabilar keng tarqalgan. Mazkur tog'lar baland bo'lmaganligi va bepoyon Qizilqum cho'lida joylashganligi tufayli ularda bo'ylama mintaqalanish (azonallik) yaxshi ifodalanmagan. Shu boisdan ular to'lig'icha cho'l zonasiga mansubdir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning tahlili asosida quyidagi xulosa va takliflarni qayd etishni lozim topdik:

1) Qizilqumdagi past tog'larni geografik jihatdan tadqiq etilgan ma'lumotlar asosan 1960-1970-yillar adabiyotlarida uchraydi. Ammo, 2000-yildan so'ng olib borilgan tadqiqot natijalari juda kamchilikni tashkil qiladi.

2) To'laligicha past tog'lar geografiyasiga bag'ishlangan adabiyotlar mavjud emas. Aynan shu mavzuga bag'ishlangan tadqiqotlar orqali bunday adabiyotlarni ko'paytirish va u orqali turizmni rivojlantirishga hissa qo'shish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Аббасов С.Б. Қизилқум чўли ландшафтлари динамикаси ва экологияси. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2019. - 174 б.

2. Арсланбеков Ш.У. Об отражении современных тектонических движений в рельефе Кызылкумской платформы. Доклады Академии наук УзССР, №8, 1969.

3. Баратов П., Маматқулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2002. – 437 б.

4. Гранитов И. И. Растительный покров Юго-Западных Кызылкумов. – Ташкент: «Наука», 1964. Т. 1. - 336 с.
5. Пятков К.К., Пяновская И.А., Бухарин А.К., Быковский Ю.К. Геологическое строение Центральных Кызылкумов. – Ташкент: “Фан”, 1967. - 179 с.
6. Саидов Д.К., Момотов И.Ф., Алимжанов А.Г. Инструкция по фитомелиорации пастбищ Юго-Западного Кызылкума. – Ташкент. 1972. – 30 с.
7. Ҳалимова Г.С. Кулжуктов тизмаси (Қизилқум) худудида атмосфера ёғинларининг кўп йиллик кўрсаткичлари хусусида // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 44-жилд. - Тошкент, 2014 - Б. 119-122.
8. Щукин И.С. Общая геоморфология. Том II. – М.: Изд-во Московского университета, 1964. – с. 563.

UMUMGEOGRAFIK QONUNIYATLARNING YER TABIATIGA TA'SIRI

G.S.Halimova,

BuxDu, geografiya fanlari falsafa doktori (PhD)

K.Amonova,

BuxDU, Geografiya ixtisosligi magistranti,

Annotatsiya: mazkur maqolada umumgeografik qonuniyatlar va ularning inson hayoti, turmush tarsi, xo'jalik faoliyatidagi ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: umumgeografik qonuniyatlar, geografik qobiq, geografik qobiqning birbutunligi, zonallik qonuniyati, davriylik qonuniyati, modda va energiyaning tabiatda aylanib yurishi, El-Nino.

Tabiat—odamning paydo bo'lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq hsioblanadi... Tabiat odamga, jamiyatga bog'liq bo'lmagan qonuniyatga bo'ysunadi. Odam tabiatning bir qismi hisoblanadi. Odam tabiat qonunlarini o'zgartira olmaydi, faqatgina uning qonunlardan foydalanib, tabiat